

## O'ZBEK TILIDA SONLAR VA ULARNING TARIXIY-TADRIJIY TARQQIYOTI

**Baynazarov Z.**

Samarqand davlat universiteti dotsenti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori  
[zmbaynazarov81@gmail.com](mailto:zmbaynazarov81@gmail.com) <https://orcid.org/0000-0001-5874-4246>

### ANNOTATSIYA

Son nomlari lisoniy manba sifatida tilshunoslikda o'rganilib kelinayotgan sohalardan biridir. Boshqa tillar kabi o'zbek tilida ham son so'z turkumi bir sath hisoblanib, uning lingvistik xususiyatlar, turlari va ifodalanishi, nutq jarayonida bajaradigan vazifasi, pragmatistik jihatlari tilshunoslik fanida o'rganilib kelinadi. Biz fikr yuritmoqchi bo'lgan sonlar tarixi va etimologiyasi ham qisman tadqiq qilingan, qiziqarli lisoniy zahiraga ega bo'lgan soha sanaladi. Lingvistik va pragmatistik xususiyatlari o'rganilgan sonlarning lingvomadaniy jihatlari ham borki, ularni lisoniy material sifatida ijtimoiy-madaniy tomonlarini etimologik tahlil bilan birga o'rganish ko'proq ilmiy natija beradi. Shuning uchun ham ushbu kichik tadqiqotimizda o'zbek tili tarixida sonlar, ularning lingvomadaniy, lingvostatistik va etimologik xususiyatlari o'rganish maqsad qilib belgiladik hamda lisoniy obyekt sifatida VII-IX asrlarda yaratilgan toshbitiglar matnlarini tanlab oldik. Tanlagan tadqiqot obyektimiz keng ko'lamlil bo'lgani uchun to'plangan materiallar ichidan faqat tub sonlarning qo'llanish statistikasi, ijtimoiy-madaniy xususiyatlari va ularning kelib chiqish etimologiyasini tahlil qilishga harakat qildik.

**Kalit so'z:** son, birlik, o'nlik, yuzlik, statistika, etimologiya, qadimgi turkiy til, toshbitiglar, sonning vazifasi, sonning tuzilishi, raqamlar.

## NUMBERS AND THEIR HISTORICAL-PROGRESSIVE DEVELOPMENT IN THE UZBEKI LANGUAGE

### АННОТАЦИЯ

Названия числительных как лингвистический ресурс являются одной из областей, изучаемых в лингвистике. В узбекском языке, как и в других языках, имя числительное рассматривается как одна часть речи, а его языковые особенности, виды и выражения, его функция в речевом процессе,




прагматические аспекты изучаются в науке языкознании. История и этимология чисел, о которых мы собираемся поговорить, также является частично исследованной областью с интересным языковым запасом. Лингвистические и прагматические особенности изучаемых числительных также имеют лингвокультурологический аспекты, и изучение их как лингвистического материала наряду с социокультурными аспектами наряду с этимологическим анализом дает больше научных результатов. Поэтому в этом небольшом исследовании мы поставили цель изучить числа в истории узбекского языка, их лингвокультурные, лингвостатистические и этимологические характеристики, а в качестве объекта исследования выбрали тексты каменных надписей, созданных в VII-IX веках. Поскольку выбранный нами объект исследования является масштабным, мы постарались из собранных материалов проанализировать только статистику использования простых чисел, социокультурные характеристики и этимологию их происхождения.

**Ключевые слова:** число, единица, десятичная, сотая, статистика, этимология, древнетюркский язык, надписи на камнях, функция числа, структура числа, числа.

## ЧИСЛА И ИХ ИСТОРИКО-ПРОГРЕССИВНОЕ РАЗВИТИЕ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ ANNOTATION

Numerals as a linguistic resource are one of the areas studied in linguistics. In the Uzbek language, as in other languages, the numeral is considered as one part of speech, and its linguistic features, types and expressions, its function in the speech process, pragmatic aspects are studied in the science of linguistics. The history and etymology of numbers, which we are about to talk about, is also a partially explored area with an interesting linguistic reserve. The linguistic and pragmatic features of the studied numerals also have linguocultural aspects, and studying them as linguistic material along with sociocultural aspects along with etymological analysis provides more scientific results. Therefore, in this small study, we set a goal to study numbers in the history of the Uzbek language, their linguocultural, linguostatistical and etymological characteristics, and as the object of study we chose the texts of stone inscriptions created in the 7th-9th centuries. Since the research object we have chosen





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


is large-scale, we tried to analyze only the statistics of the use of prime numbers, sociocultural characteristics and the etymology of their origin from the collected materials.

**Key words:** number, unit, decimal, hundredth, statistics, etymology, ancient Turkic language, inscriptions on stones, number function, number structure, numbers.

**KIRISH.** Kishilik jamiyati paydo bo‘libdiki, son va raqamlarning ahamiyati muhim rol o‘ynaydi. Milliy-madaniy ko‘rsatkich sifatida talqin etilayotgan raqamlar har bir xalqning ma‘naviy tafakkuri, dunyoqarashi, milliy mentalitetini ifodalovchi o‘ziga xos lingvomadaniy belgidir. Vaqtlar o‘tgan sari raqamlar milliy-madaniy kod darajasiga ko‘tarilib, muayyan xalqning marosimlari, urf-odatlar va hayot tarzini ifodalovchi ko‘rsatkichlar qatoridan joy oldi-ki, hatto ularning xususiyatlari va inson hayotidagi o‘rni masalalarini o‘rganuvchi maxsus fan - numerologiya paydo bo‘ldi. Insonlar raqamlarga ilohiy libos kiydirdilar, natijada turli millatlarda raqamlar bilan bog‘liq o‘ziga xos qarashlar maydonga keldi<sup>1</sup>. Dastlabki davrlarda raqamlar so‘z bilan ifodalangan. Inson ijtimoiy xo‘jalik faoliyatining rivojlanib borishi natijasida so‘zdan mukammal va sodda ko‘rinishdagi belgilarga ehtiyoj paydo bo‘lgan. Manbalarda keltirilishicha, ilk sonni ifodalovchi raqamlar Qadimiy Bobil va misrliklarga tegishlidir. Misr ieroglif raqamida sonlarni ifodalash uchun maxsus rasm-belgilar, keyinroq ieratik va demotik yozuvlari paydo bo‘ldi. Bobil raqamlari (miloddan avvalgi 2000-yil boshi), asosan, 1, 10, 60 va 100 ni bildiruvchi mixxat belgilari bo‘lib, boshqa barcha raqamlar shular asosida ifodalangan. Misr iyeroglif yozuvidan Yaqin va O‘rta Sharqdagi barcha yozuvlar hamda Yunon Ioniya yozuvi, shu bilan birga alifboga asoslangan raqam kelib chiqqan<sup>2</sup>. Hozirgi ko‘rinishdagi raqamlar va nol eramizning V asrida Hindistonda paydo bo‘lgan va asta-sekin takomillashib, rivojlanib borgan. Hind raqamlari IX asrda Yevropaga arab raqamlari nomi bilan kirib borgan va tezda ommalashib ketgan. Bugungi kunda ham eng mukammal hisoblangan ushbu sonlar tizimining “arab raqamlari” deb nomlanishi va butun dunyoda, ayniqsa, Yevropada ommalashishida buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiyning xizmatlari beqiyos hisoblanadi. Sharq mamlakatlarida sonni raqam bilan ifodalash XIX asrda ommalashgan. Unchaga so‘z

<sup>1</sup> Qayumova N.R. Sonlarning hayotda ahamiyati. <https://cyberleninka.ru/article/n/sonlarning-hayotda-ahamiyati> (2022, sentabr).

<sup>2</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamlar> (sentabr 2022).





bilan ifodalangan sonlar tilimizni eng qadimiy davrda qanday ko‘rinish qo‘llanilgan haqida ushbu kichik tadqiqotga fikrlashamiz.


**ADABIYOTLARDA...** Son mavzusi qadimgi turkiy til haqida tadqiqot olib borilgan deyarli barcha manbalarda uchratish mumkin. Bundan tashqari, qadimiy sonlar bo‘yicha alohida tadqiqotlar ham olib borilgan. Rus tadqiqotchisi G.D.Ibragimov o‘zining tadqiqotida A.N.Samaylovich, S.E.Malov, A.N.Kononov, F.G.Isxakov, E.R.Tenishev, X.M.Zarbaliyev, V.M.Nasilov, G.Aydarov, A.Amanjolov, K.A.Ashuraliyev, I.V.Kormushin kabi olimlar qadimgi turkiy manbalar borasida olib borgan ilmiy ishlarida sonlar haqida o‘z tahlillarini bayon etganligi qayd etilgan<sup>3</sup>. Turk tadqiqotchisi Selin Shenaysoy “Eski turk tilida sonlar” nomli dissertatsiyasida J.Klousson, J.Ehlars, M.Bashturk, Zeki Kaymaz, Sevim Yilmaz O‘nder, G.Go‘jayeva-Mehmedova, E.Gemalmaz, E.Bajanli, A.Atiji, M.Dashdemir, A.B.Erjulasun, S.Kuchuk<sup>4</sup> kabi olimlar bevosita turkiy sonlar, ularning etimologiyasi, tizimlashishi, turlari va ularning lingvokulturologik tahliliga bag‘ishlangan ilmiy ishlar yaratgan. Bu mavzu borasida o‘zbek olimlarining ham xizmatlarini e‘tirof etish lozim bo‘ladi. Jumladan, G‘.Abdurahmonov, S.Mutallibov, A.Rustamov, E.Umarov, Q.Sodiqov, N.Rahmonovlarning tadqiqotlarida bu haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

**TAHLIL.** Har qanday tilning boyligi uchun sonlarning nomlanishi, ya’ni nominatsiyasi lisoniy tahlil uchun katta ahamiyatga ega. Son nomlari barcha mustaqil tillarning asosiy lug‘at fondida o‘z o‘rnini topgan va tillararo genetik tahlillar uchun “qarindoshlik iz”ini ko‘rsatadigan muhim omillardan biridir. Shuning uchun ham har bir lingvomadaniyat o‘zi uchun belgilaydigan sanoq tizimiga ega. Boy sanoq tizimiga ega bo‘lgan turkiy xalqlar o‘tmishdan hozirgi kungacha turli sanoq sistemalaridan foydalangan.

Insoniyat tarixida sonlarning paydo bo‘lishi ijtimoiy-iqtisodiy va ehtiyoj charbarchas bog‘liligi ko‘plab manbalarda ta’kidlab o‘tilgan. Bu haqida tadqiqot olimlar juda qiziqarli fakt va ma’lumotlarni keltirib o‘tadilar. Turkolog olim Georges Ifrah o‘zining bir necha ilmiy tadqiqotlaridan bu haqida fikr yuritadi. Ma’lumki, dastlab son kishilar qo‘l barmoqlarini sanashdan boshlangan. Hisoblash dastlab barmoqlarni o‘z ichiga oladi, chunki bugungi kunda paydo bo‘layotgan sanoq sistemalarida

<sup>3</sup> Г.Д.Ибрагимов. Числительные и их передача в рунических и древнеуйгурских памятниках письменности. Вестник Башкирского университета. 2010. Т. 15. №3(1), 989-991-бетлар

<sup>4</sup> Shenaysoy S. Eski türkçede sayılar. Eskişehir, 2016.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

raqamlarni sanash keng tarqalgan bo‘lib, besh va o‘n raqamlarini qo‘l bilan ifodalash keng tarqalgan. Bundan tashqari, jahon sanoq tizimlarining aksariyati *o‘nlik*, *beshlik* va *yigirmalik* raqamlar bilan tashkil etilgan bo‘lib, ular sanashda qo‘l va oyoqlardan foydalanishni taklif qiladi va tillararo bu miqdorlar uchun atamalar etimologik jihatdan qo‘llar va raqamlarga asoslanadi<sup>5</sup>. Tarix davomida o‘nlik sistemasi hukmron bo‘lgan turkiy sanoq sistemasiga diaxronik nazar tashlansa, ba‘zi tub o‘zgarishlar sodir bo‘lganligi ko‘rinadi. O‘zbek tilining eng qadimgi davri hisoblanadigan Turk va Uyg‘ur hoqonliklari davrlarida 10 dan 100 gacha bo‘lgan sonlarda ikki xil sanoq tizimi qo‘llanilgan. Turli ko‘rinishda bizgacha yetib kelgan bitigtoshlardagi run yozuvlarida son va uning turli shakllari uchraydi. Manbalarda e‘tirof etilishicha, hozirgacha topilib, o‘qib-o‘rganilgan bitigtoshlar soni 490 dan ortiq bo‘lib, jami 97 son 383marta takror ifodalangan<sup>6</sup>. Shu bitigtoshlarda son va uning turlarini aylatuvchi so‘zlar statistikasi quyidagicha:

|   | Sonning turi  | Miqdori | Takror qo‘llanishi |
|---|---------------|---------|--------------------|
| 1 | Sanoq son     | 73      | 317                |
| 2 | Tartib son    | 16      | 57                 |
| 3 | Chama son     | 3       | 3                  |
| 4 | Jamlovchi son | 2       | 2                  |
| 5 | boshqalar     | 5       | 6                  |

Tarix davomida o‘nlik sistemasi hukmron bo‘lgan turkiy sanoq sistemasiga diaxronik nazar tashlansa, ba‘zi tub o‘zgarishlar sodir bo‘lganligi ko‘rinadi. Eski turkcha deb ham ataladigan Ko‘kturk va Uyg‘ur davrlarida 10 dan 100 gacha bo‘lgan sonlarda ikki xil sanoq tizimi qo‘llanilgan. Ulardan birinchisi bir xonali son dan boshlanib, keyingi 10 ning karrali bilan tugaydi. Ikkinchisida bitta raqamli kichik raqam 10 ga karrali katta raqamdan keyin “ortiqcha, ko‘proq” so‘zini qo‘shish orqali ishlatiladi. Quyidagi tub sonlarni bitigtosh matnlarida ko‘rishimiz mumkin:

| Hozirgi shaklda yozilishi | Bitigtosh matnlaridagi transkripsiyasi |
|---------------------------|----------------------------------------|
|---------------------------|----------------------------------------|

<sup>5</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Georges\\_Ibrah](https://en.wikipedia.org/wiki/Georges_Ibrah)

<sup>6</sup> H.Şirin. Eski türk yazıtları söz varlığı incelemesiçTDK yayınları. Ankara. 2020, 494-497-betlar.





|    |          |                 |
|----|----------|-----------------|
| 1  | bir      | bir             |
| 2  | ikki     | eki             |
| 3  | uch      | üç              |
| 4  | to‘rt    | tört            |
| 5  | besh     | biş/beş         |
| 6  | olti     | altı            |
| 7  | yetti    | yeti/yiti       |
| 8  | sakkiz   | säkiz           |
| 9  | to‘qqiz  | tokuz           |
| 10 | o‘n      | on              |
| 11 | yigirma  | yegirmi/yigirmi |
| 12 | o‘ttiz   | otuz            |
| 13 | qirq     | kırk            |
| 14 | ellik    | älig            |
| 15 | olmish   | altmış          |
| 16 | yetmish  | yetmiş          |
| 17 | sakson   | säkiz on        |
| 18 | to‘qson  | Ø               |
| 19 | yuz      | yüz             |
| 20 | ming     | bī□             |
| 21 | O‘n ming | tümän           |

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ayrim fonetik o‘zgarishlarni hisobga olmasa, bitigtosh matnidagi sonlar hozirgi o‘zbel tilidagi shaklidan deyarli farq





qilmaydi. Faqatgina l,k,t kabi tovushlarning ikkilanishi, “sakson” sonida “sakkiz” va “o‘n” qismlarining birga tallaffuz etilishi jihatlaridan farqliliklarni ko‘rishimiz mumkin. yuqorida ta’kidlab o‘tganimiz kabi sonlar tilning tabiiy-geniologik belgilarini o‘zida tanishdi hamda har qanday lisoniy o‘zgarish va evrilishlarga, boshqa leksik birliklarga nisbatan, bardoshli hisoblanadigan somatik birliklardir.

Bitigtoshlarda yuzliklar quyidagicha ifodalangan: *eki yüz* – ikki yüz; *üç yüz* -uch yuz; *biş yüz* – besh yuz; *alti yüz* – olti yuz; *yeti yüz* – yetti yuz; *tokuz yüz* – to‘qqiz yuz. Balki, toshlarga bitik bitadigan bitigchining ehtiyoj bo‘lmagandir yoki haligacha o‘qilmagan toshlarda bordir, ammo ixtiyorimizdagi mangutosh obidalarida to‘rt yuz va sakkiz yuz sonlari ifodalanmagan. Mingliklardan ham bor-yo‘g‘i 5ta: *bi*□ - ming; *eki bi*□ - ikki ming; *beş bi*□ - besh ming; *alti bi*□ (bu o‘rinda *i* tovushi qisqa) – olti ming; *yeti bi*□ - yetti ming. Qadimiy turkiy tilda mingdan ko‘p sonni tuman atamasi bilan atagan. U, asosan, o‘n mingni ifodalab kelgan. Bitigtoshlar matnida 6ta o‘nminglik: *bir tümän* – bir tuman (o‘n ming); *üç tümän* – o‘ttiz ming; *tört tümän* – qirq ming; *biş tümän* – ellik ming; *säkiz tümän* – sakson ming; *on tümän* – yuz ming kabi sonlar qo‘llanilgan.

**Bir.** Bitigtosh va boshqa tarixiy-madaniy obidalarimizda bir soni hozirgi zamon shaklida bir va bir transkripsion ko‘rinishda qo‘llanib kelinadi. Bu son dunyo anglash, tushunish, bilishning boshlanishi nuqtayi nazaridan ham eng muhim son sanaladi. Diniy madaniyatda birlik, yagonalikni anglatadigan muqaddas raqamdir. Birla, birik mazmuni *bir* so‘zidan kelib chiqqan. Turkiy tillardagi bir (ko‘rsatkich barmog‘i) tartib raqami uchun bir xil natijaga ega bo‘lgan ikkita tahlil qilish mumkin. Birinchidan, aytish mumkinki, agar barmoqlarni sanash usuli va morfologik ma‘lumotlarga e‘tibor qaratsak, “bir” sonining o‘ziga xos ma‘nosi borligi ko‘rinadi. Chunki turkiy tilda aytuvchi subyekt barmog‘i bilan aytuvchi bo‘shliqdagi biror narsaga ishora qilish uchun “bu” ko‘rsatish olmoshidan foydalanadi. Bundan tashqari, “men” va “biz” olmoshlari mos ravishda birinchi shaxs birlik va birinchi shaxs ko‘pligini ifodalash uchun ishlatiladi. Tartib sonda ham, bu olmoshlarda ham qo‘llaniladigan birinchi harf **b** sanaladi. Manbalarda bir sonining *o‘z*, *o‘zim*, *men* shakllaridan kelib chiqqan degan farazlar ham ilgari surilgan. “Bir” – bu so‘zlovchi demak, ya’ni “men”dir (mening o‘zim, men turgan yer yoki men tutgan narsa), I shaxs birlikdagi inson. “Men” (ben, bin) qadimgi turkiy tilda **bi** bo‘ladi. Bu so‘z birü-beri ko‘makchisining tarkibida ham saqlangan. -rü jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi, berü – “men tomon” degani. Hozirgi





o'zbekchada beri shaklida qo'llaniladi. Masalan: beri kel, ko'pdan beri. **Bir**ning tarkibidagi **bi** – so'zlovchi (“men”)dir. Demak, sanoq so'zlovchining o'zidan boshlanadi<sup>7</sup>.

**Ikki.** Tarixiy manbalarda eki va iki shakli hozirgi ikki sonini ifodalagan. Qadimgi diniy tushunchga ko'ra Yaratgandan boshqa barchasi yolg'iz bo'lmaydi, balki juft bo'ladi. Shu tushuncha e'tiboridan mutaxassislar ikki sonini juftlik anglamida qabul qiladilar. Shuningdek, manbalarda ushbu so'zdagi “k” (ba'zan g', q, g bo'lishi mumkin) tovushi “quloq”, “kurak”, “barmoq”, “oyoq” kabi so'zlarda qo'llanganidek, juftlikni anglatishi ta'kidlaydilar<sup>8</sup>.

**Uch.** Bu sonning ham kelib chiqishiga o'zgacha qarashlar mavjud. Bir – men (ben), birinchi shaxs, ikki – sen, ikkinchi shaxs, uch esa begona, uchinch shaxs, deb talqin qiluvchilar ham mavjud. Shuningdek, “uch”, “yetti” va “qirq” kabi sonlar bilan bog'liq diniy udumlar ham mavjud bo'lib, ular milliy qadriyatlarimiz zamiriga singib ketgan. Ma'lumotlarga qaraganda “uch” soning ilk shakli “yuch” sanaladi. Qadimgi turkiylarda bu so'zning boshqa mazmuni ham qo'llanilgan. Urug', qabila, davlatlarning chegaralarini belgilaydigan yerlar, shahar va istehkomlar *uch qal'a*, *uch bekklik* deya nomlangan hamda chegara, oxiri va, eng muhimi, “uchi” mazmunini ifodalagan<sup>9</sup>.

**To'rt.** Tarixiy manbalardagi 4 unsur, jumladan, “O'g'uzxoqon” dostoni hamda “Qutadg'u bilig”dagi unsurlar, *dunyoning to'rt tomoni* kabi lingvokulturemalar turkiylar, xususan, o'zbek xalqining qadimiy konseptlari ekanligi haqida manbalarda ko'plab ma'lumotlar berilgan<sup>10</sup>. Ushbu son qadimdan to'plam, jamoa, ko'plik mazmunini ifodalagan bo'lib, “*do'rmon*”, “*durben*”, oltoy davrida “*turi*” shaklarida qo'llanib kelingan<sup>11</sup>.

**Besh.** Bitigtoshlar matnida bu son beš/biš shakllarida uchraydi. *Özü □ kolsa iki ajun begliki bu biş işke yakma bu ol yigliki. Eđer her iki dūnyanın beyliğini de istiyorsan, sen şu beş işe yaklaşma; en iyisi budur.* Matnlarda **besh** soni uchta variantda

<sup>7</sup> Rabmonov N., Sodiqov Q. O'zbek till tarixi. -Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. 2009. - B.124-125

<sup>8</sup> Baştürk, M. Parmaklari sayma biçimi ve kökenlerinden hareketle türkçede sıra sayi sisteminin oluşumu. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi.1995, 3-sayı. [Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi » Makale » parmaklari sayma biçimi ve kökenlerinden hareketle türkçede sıra sayi sisteminin oluşumu \(dergipark.org.tr\)](http://dergipark.org.tr)

<sup>9</sup> Yuqoridagi manba: -B.17.

<sup>10</sup> Qarang: Sodiqov Q. Turkiy til tarixi. -Toshkent: TDSHI nashri, 2009.

<sup>11</sup> Baştürk, M. Parmaklari sayma biçimi ve kökenlerinden hareketle türkçede sıra sayi sisteminin oluşumu. -B.17-18.







uchraydi: **bāsh**, **bis**, **bäs**. Ulardan birinchisi – “Kultegin”, ikkinchisi – “Moyunsur”, uchinchisi – “Tonyuquq” bitigtoshlarida ifodalangan. Grafik dizayndagi bu farqlar Urxon-Yenisey davri turkiy tillarining dialekt bo‘linishini taklif qilishga asos beradi<sup>12</sup>. Shuningdek, turkiy xalqlar qo‘l barmoqlarining ketma-ketligiga asoslanadigan bo‘lsak, bosh barmoq beshinchi navbatda sanaladi. Ya’ni, ularning ketma-ketligi quyidagicha: 1 – ko‘rsatkich barmoq; 2 – o‘rta barmoq; 3 – uzuk barmoq; 4 – kichik barmoq va nihoyat 5 – bosh barmoq. Shunga asoslanib besh so‘zining etimologiyasini bosh so‘ziga bog‘lashadi<sup>13</sup>. Bu gipotezaning ham ilmiy-lisoniy ham lingvomadaniy asosi bor deb hisoblashimiz mumkin.

**Olti.** Tonyuquq bitigida “süsi altu biñ ermiş” degan jumla qayd etilgan. Bundan ko‘rinadiki, bu son boshqa birliklar kabi qadimdan faol qo‘llanilib kelingan. Manbalarda so‘z tarkibidagi qo‘sh undosh -lt- fonetik o‘zgarishga uchragani haqida fikr yuritilib, aslida -rt- shaklida arti, ya’ni ortiqcha, ortmoq so‘zidan kelib chiqqani, **arti** so‘ziga bog‘liq ekani haqida bahslar uchraydi. Arti keyinchalik olti, alti shakliga o‘zgartirib qayd etib o‘tilgan. Bunga tilimizda fonetik va lingvomadaniy asos mavjud. Fonetik hodisalar sabab l tovishining r shakliga, yoki teskarisi, o‘zgarishi mumkin bo‘lgan jarayon sanaladi. Bundan tashqari, bir qo‘ldagi 5 barmoq sanalgandan so‘ng ortib ikkinchi qo‘lga o‘tilganidan kelib chiqib shunday nomlangan. Qadimiy turkiylarning bu odati hozirgacha saqlanib qolgan. Shuningdek, qadimgi turkiy sanoq tizimida “arti” kalimasining alohida ahamiyatli o‘rni borki, bu haqida tadqiqotimizning keyin sahifalarida to‘xtalib o‘tamiz.

**Yetti.** Hozirgi turkiy tillarda turli fonetik ko‘rinishlarda ifodalangan yetti soni toshbitiglarda yeti/yiti shaklida qo‘llangan bo‘lib, buni ayrim tadqiqotchilar tasdiqlab o‘tadi<sup>14</sup>. Bitigtoshlarda asl son sifatida 13 marta qo‘llanilgan ushbu so‘zning o‘zagida -id/-ad shakllari mavjud. Turli shaxslarda idodalanganda shunday shaklda qo‘llaniladi. Bizning lingvomadaniyatimizda “uch”, “qirq” kabi “yetti” sonini ham o‘ziga xos milliy kulturema sanaladi. Haftaning yetti kuni, kamalakning yetti rangi, musiqaning yetti notasi, dunyoning yetti mo‘jisasi, yetti iqlim, yetti dengiz, “yettisi” kabu konseptlar milliy madaniyatimizning ajralmas qismi sanaladi.

<sup>12</sup> Ибрагимов Г. Д. Числительные и их передача в рунических и древнеуйгурских памятниках письменности. Вестник Башкирского университета. 2010. Т. 15. №3(I). -С.990.

<sup>13</sup> Yuqoridagi manba: -B.19.

<sup>14</sup> Ибрагимов Г. Д. Числительные и их передача в рунических и древнеуйгурских памятниках письменности. Вестник Башкирского университета. 2010. Т. 15. №3(I). -С.990.





**Sakkiz.** *Kangim kagan uçdukda özüm sükiz yaşda katlim.* Sakkiz soni “Bilga Xoqon” bitigida qo‘llanilgani kabi bitigtoshlar matnida tub son sifatida 8 o‘rinda ifodalangan. Shuningdek, *säkiz on, säkiz tüman, säkiz kirk, säkiz yegirmi* ko‘rinishlarida ham faol qo‘llanilgan. Manbalarda keltirilgan sakkiz so‘zining etimologiyasida ko‘plik ma‘nosini ifodalaydigan qadimgi turkiy tildagi -z qo‘shimchasi borligi qayd qilinadi. I va II shaxs ko‘zlikni ifodalaydigan biz, siz kabi olmoshlarda, shuningdek, ko‘z, o‘muz, tiz(z)a, egiz kabi so‘zlarda qo‘llanilgan -z, aslida, ikkilik va ko‘plikni ko‘rsatadigan qo‘shimcha hisoblanadi.

**To‘qqiz.** Bitigtosh matnlarida *tokuz ärsin, tokuz oyuz, tokuz tatar* kabi miqdor mazmunidagi o‘rinlar bilan birga 12 joyda to‘qqiz sini qo‘llanilgan. *Sakkiz* sonini tahlil qilganimiz kabi bu so‘zda ham -z undoshi ko‘plik ma‘nosini ifodalab kelgan. *Yetti* qatori qo‘shimchasidagi *olti* qatoriga moslashgani kabi, to‘qqiz ham -z undoshini qabul qilib, *sakkiz* qatoriga moslashgan bo‘lsa kerak.

Shu o‘rinda dunyo tillaridagi sanoq sistemalariga e‘tibor qaratsak, turli sanoq tizimlari borligini qayd etib o‘tishimiz lozim. 11 dan 99 gacha bo‘lgan raqamlarning turli tillarda ifodalanishi, 10 ga ko‘paytmalarning hosil bo‘lishi, tilda maxsus va istisno son nomlarining mavjudligi, hisob-kitoblarda 10, 20, 50 yoki 100 tizimlaridan foydalanish turlicha turlicha ekanligiga amin bo‘lamiz. Jahon tillarida, jumladan, Yevropa tillarida 11-19 va 21-99 raqamlarining formati va ketma-ketlik xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. 21 dan 99 gacha bo‘lgan raqamlarda birinchi navbatda 10 ning ko‘paytmasidan hosil bo‘ladi. Keyin esa kichikroq sonlar qo‘llaniladi, 11 dan 19 gacha bo‘lgan sonlarda avval kichikroq raqamdan keyin 10 raqami yoki uning toraytirilgan shakllari ishlatiladi. Ingliz tilidagi qoidadan tashqari o‘n bir (11) va o‘n ikki (12) raqamlarini chetga surib qo‘ysak, biz o‘n uch(13), o‘n to‘rt (14), o‘n besh (15) va hokazolarni shakllarini ko‘rishimiz mumkin. ko‘pchilikka tanish bo‘lgan rus tilida *odinnadtsat, dvenadtsat, trinadtsat* va boshqalar sonlarda ham bunday holarni uchratamiz. Ularning etimologik ma‘nosi “10 dan 1,2,3,4,5,6,7,8,9 (10+1, 10+2, 10+3 va hakozo) ortiq mazmunini ifodalaydi. 10 dan 70 gacha bo‘lgan ko‘paytmalar fransuz tilida oddiy tarzda olingan bo‘lsa-da, biz 70, 80 va 90 raqamlari uchun qiziqarli hosila usullarini ko‘ramiz. 70 raqami *soixante dix* bo‘lib, “oltmish+o‘n” ma‘nosini bildiradi, 80 soni esa “to‘rt yigirma” ma‘nosini bildiruvchi *quatre-vingts*, 90 raqami “sakson+o‘n” (80+10) yoki “to‘rt yigirma+o‘n” (4\*20+10) *quatre-vingt-dix* ko‘rinishidagi birikmalardan olingan. 10 soniga ko‘paytirish orqa o‘nlik sonlarni





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

shakllantirishning eng qiziqarli misollari gruzin tilida ko'rishimiz mumkin. 30 dan 99 gacha bo'lgan sanoq tizimi o'nlikka asoslangan va frantsuz tilidagi 70 dan 99 gacha bo'lgan tizimga o'xshab shakllanadi. Shunisi e'tiborga loyiqliki, 20, 50 va hatto 100 lik sanoq tizimlari hozirgi ayrim turkiy tillarda keng qo'llaniladi: qorachay-balkar tilida: **o'ttiz** soni jiyirma//yigirma+o'n (20+10) bilan; turkman tilida: **bir yuz ellik** soni uch ellik (3\*50) bilan; solar tilida: **etmish** soni ellik+ yigirma (50+20) bilan; qirg'iz tilida: **bir ming bir yuz** soni o'n bir yuz ming yuz (11+1000), **ikki ming** soni esa yigirma yuz (20+100) bilan ifodalanadi. Bundan ko'rinadiki, 4, 10, 20 sonlari 10dan 99 gacha bo'lgan sonlarni shakllantirishda muhim rol o'ynab kelgan<sup>15</sup>.

**O'n**. Insoniyat dastlab bir qo'lning besh barmog'ini, keyin esa ikki qo'lning o'n barmog'ini sanashni boshladilar. O'n raqam etarli bo'lmaganda, bu hisoblash jarayoniga oyoq barmoqlari ham qo'shilgan va shunday holatda davom etishgan. Son va sanash qo'l barmoqlaridan boshlangani ishonarli faktdir. Turkiy tillardagi birinchi o'nlik sanoq sistemasining raqami bo'lgan **o'n** o'z ildiziga "s-" tovushi qo'shilishi bilan "tugash, bitish" ma'nosini o'z ichiga oladi, ya'ni, so'ng - **so**. Bu shuni ko'rsatadiki, barmoqlarni hisoblash usuliga ko'ra, endi hisoblash uchun barmoqlar qolmaydi. **O'n** so'zining etimologiyasi ham shunga bog'liq, bizningcha. Dastlabki davrlarda bu son eng yirik hisoblangan. Undan keyin davrlar o'tishi bilan boshqa yirik sonlar kishilik jamiyati ehtiyojlari tufayli yuzaga kelgan va taraqqiy etib borgan hamda sonlar sistemalashgan.

**Yigirma**. G'arbiy Afrikaning ba'zi qismlarida cho'ponlar suruvni hisoblashning juda amaliy odati bor edi. Ular barcha hayvonlarni birin-ketin o'tkazib yuborishdi. Birinchi o'tishda ular bitta qobiqni oq kamarga, ikkinchi o'tishda esa yana bir qobiq qo'yishadi. O'ninchi hayvon o'tib ketayotib, marjonni sindirib tashladi va uning qadamiga bog'langan ko'k kamarga qobiq qo'yishdi. Keyin yigirmanchi hayvon o'tib ketguncha, ular yana oq kamarga qobiqlarni qo'yishni boshladilar. Yigirmanchi hayvonda ular ikkinchi qobiqni ko'k kamarga bog'lashadi. Markaziy Amerika xalqlaridan biri bo'lgan mayyaliklar yigirmaga yigirma va yigirma kuchini hisoblash uchun yigirmalik bazadan foydalanganlar. Chunki ularning ota-bobolarida nafaqat qo'lning o'n barmog'i bilan, balki oyoqning ham o'n barmog'i bilan sanash odati

<sup>15</sup> Bacanlı E. Geçmişten Günümüze Türkçenin Sayıları ve Sayı Sistemi. (99+) "Geçmişten Günümüze Türkçenin Sayıları ve Sayı Sistemleri". Bilim ve Teknik (Kasım-2012), 56-58. | Eyüp Bacanlı - Academia.edu





bo'lgan. Bu ma'lumotlarni tahlil qilgan Selim Shenaysoy o'nlik sanoq tizimidan so'ng ham yirik sanoq tizimlari dunyoning ilk sivilitsiyalarida ham mavjud ekanligini qayd etib o'tadi<sup>16</sup>. Turkiy xalqlarning ilk manbasi sanaladigan bitigtoshlarda **yegirmi/yigirmi** fonetik shaklida tub son sifatida 7 marta qo'llanilgan. Tabiiyki, boshqa sonlar tarkibida ham faol qo'llanilgan.

**O'ttiz.** [Kül] *Tigin ol süngüşde otuz yaşayur erti* – Kultegin bu jangda o'ttiz yoshida edi. "Kultegin" bitigtoshi mantnida keltirilgan ushbu jumladan qadimgi turkiy tildagi 30 soni qo'llanilgan. Umuman, bitigtosh matnlarida faol qo'llanilgan **o'ttiz** soni **otuz** shaklida, tub sifatida 6 marta ifodalangan. Bundan tashqari, boshqa sonlar tartibida ham faol ishlatilgan. Bu so'zning etimologiyasida, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, ko'plik mazmunini ifodalaydigan **-z** qo'shimchasi borligi manbalarda keltirilib o'tilgan<sup>17</sup>. *Sakkiz* va *to'qqiz* so'zlarida ham ushbu qo'shimcha ko'plim ma'nosini ifodalab kelgan.

**Qirq.** *Qirq yilqa tegin bay çığay tüzlädür* – Qirq yilgacha boy bilan kambag'al tenglashadi. *Kül Tigin bir kırk yaşayur erti* – Kultegin bir qirq, ya'ni o'ttiz bir yoshida edi. Barcha bitigtosh matnlarida tub son sifatida qirq so'zi 4 marta ishlatilgan. Taniqli turkolog olim A.B.Ercilasun sonlarning etimologiyasini qadimgi turkiy harbiy qo'shinlarda askarlarning tartib bilan joylashuviga bog'laydi. **Qirq** so'zi ham xuddi shunday izohlangan. "Devonu lug'ati-t-turk"da barmog'i yo'q odamga "kirik odam", ya'ni nogiron, cho'loq kishi deyiladi. Natijada, *singan*, qiyshiq qo'lga o'xshash to'rtta otryad (o'n askardan iborat to'rt qator) qirq kishilik harbiy qismning nomini, keyin esa **qirq** soni kelib chiqqan<sup>18</sup>. Bu **kirik** so'zining *qirilgan*, *singan* ma'nolari hozirgi turkiy tillarda faol ishlatilib kelinadi.

**Ellik.** Bitigtosh matnlarida **ellig** shaklida 5 marta tub son sifatida qo'llanilgan bo'lib, faol ishlatilganini ko'rishimiz mumkin. bu so'zning etimologiyasi bo'yish manbalarda qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Jumladan, turkolog Qosimjon Sodiqov qayd etgan mulohazalar so'zning asosi fe'lga borib taqaladi. Ayrim olimlar **ellig** so'zini **ellig** [ya'ni "eli bor"] so'zidan dan kelib chiqqan deb tushuntiradilar. Bu fikrga

<sup>16</sup> Shenaysoy S. Eski türkçede sayılar. Eskişehir, 2016. -B.21.

<sup>17</sup> Baştürk, M. Parmakları sayma biçimi ve kökenlerinden hareketle türkçede sıra sayı sisteminin oluşumu. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi.1995, 3-sayı. [Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi » Makale » parmakları sayma biçimi ve kökenlerinden hareketle türkçede sıra sayı sisteminin oluşumu \(dergipark.org.tr\)](http://dergipark.org.tr)

<sup>18</sup> Ercilasun A.B. Başlangıçtan Yirminci Yüzyıla Türk Dili Tarihi, Akçağ Yayınları, Ankara.2009.





qo‘shilmayman. Chunki *-g, -ğ* qo‘shimchasi fe‘ldan ot yasaydi. Masalan, “kuzatuvchi, 140 ayg‘oqchi” anglamidagi *körüg* so‘zi *kör-* fe‘ldan yasalgan. Shunday ekan, elig so‘zining negizi “el, yurt” anglamidagi *el* emas. Endi uning mag‘zini chaqib ko‘raylik. Tilimizda *elit* fe‘li bor, “yetakla-, olib bor-” ma‘nosida. Ushbu so‘zdagi *-t* ko‘rsatkichi orttirma nisbat qo‘shimchasidir. Demak, fe‘l *eli-* bo‘lib chiqadi, u “qo‘l, barmoq” ma‘nosidagi el otidan, so‘ng unga *-g* qo‘shimchasini qo‘shib, elig so‘zi yasalgan: *el+i+g>elig*. *Elig* so‘zining ma‘nosi “yetaklovchi, boshlovchi” degani<sup>19</sup>. Turk olimi A.B.Erjilasun *ellik* so‘zini harbiy tuzum bilan izohlaydi, ya‘ni 10 nafar askar bir qatorda otryad tuzadi. Yonma-yon turgan beshta otryad (o‘n askardan iborat besh qator) old tomondan qaralganda (qo‘mondon nuqtayi nazaridan) besh barmoqli qo‘llarga o‘xshaydi. Natijada, 5 ta otryad askarlari dastlab *elig* (qo‘l) deb nomlangan, keyin bu so‘z *ellik* sonining nomiga aylangan<sup>20</sup>.

***Oltmish, yetmish.*** Bu ikki son ham bitigtosh matnlarida faol qo‘llanilgan so‘zlardan hisoblanadi: oltmish – 4, yetmish – 6 marta. Deyarli barcha manbalarda oltmish va yetmish so‘zlarining etimologiyasi haqida bir xil ma‘lumot berilgan. Ya‘ni, olti va yetti sonlariga *-mish* qo‘shimchasi qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan: olt(i)+mish, yet(ti)+mish.

***Sakson, to‘qson.*** Keltirilgan sonlardan biri bitigtosh matnlarida ifodalangan bo‘lib, sakson *säkiz on* shaklida tub son sifatida 2 marta qo‘llanilgan bo‘lsa, to‘qson tub son sifatida ishlatilmagan. Negadir *to‘qson* so‘zi bitigtoshlarda qo‘llanilmagan. Yodnomalar bitilgan davrda bu son ishlatilgan. Bunday fikrga kelishimiz sababi, to‘qsondan yuqori sonlar, jumladan, *yuz, to‘qqiz yuz, ming, tuman* kabilar faol qo‘llanilgan. Oraliqda bitta son ifodalanmay qolishi mumkin emas. Balki bitigchilarning ehtiyoji bo‘lmagandir, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu sonlarning etimologiyasi ham, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, barcha manbalarda bir xil keltirilgan. *Sakkiz va to‘qqiz* sonlariga *o‘n* so‘zining qo‘shilishidan tashkil topgan: sek(kiz)s+on; tok(kiz)s+on.

***Yuz.*** Qadimgi turkiy sonlarni harbiy qo‘shinda askarlarning joylashuvi qarab tahlil qilgan turk olimi A.B.Erjilasun *yuz* so‘zi haqida quyidagicha fikr bildiradi. “Yuz” so‘zini askarlarning harbiy joylashuvi bilan izohlash mumkin, son ma‘nosidagi “yuz”

<sup>19</sup> Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. -Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti nashri, 2009 yil. -B. 139-140.

<sup>20</sup> Erjilasun A.B. Başlangıçtan Yirminci Yüzyıla Türk Dili Tarihi, Akçağ Yayınları, Ankara.2009.





so‘zi bilan “yuz”, “yuza” so‘zlari bir xil ma‘noni ifodalaydi. O‘rtada turgan o‘n otryad (yuz askar) o‘rta yuzni (o‘rta front), o‘ng tomonda turgan o‘nta otryad o‘ng yuzni (o‘ng old tomon), chap tomonda turgan o‘nta otryad chap yuzni tashkil qiladi. Harbiy atama sifatida “yuz” – arabchada “old, jabha”, inglizchada “front”, “harbiy front” ma‘nosini bildiradi<sup>21</sup>. Toshbitig matnlarida yuz soni tub son sifatida 9, jami esa 22 marta qo‘llanilgan.

**Ming.** Bu so‘z qadimgi turkiy tilda bi□/bi□, mi□/mi□ fonetik shaklida ifodalangan bo‘lib, bitigtosh matnlarida tub son sifatida 7, umuman 9 marta qo‘llanilgan. So‘zning etimologiyasida bir va men shakllari borligi ko‘pgina manbalarda qayd etiladi. Qadimgi va hozirgi ayrim turkiy tillarda men birinchi shaxs olmoshi *ben*, yoki eskidan *bin* shakllarda qo‘llangani uchun tadqiqotchilar *ming/bin* sonining etimologiyasini olmoshga bog‘lashadi. Chunki bu so‘zlarga asos bo‘lgan bi-shakli qadimiy turk tilida “yakka shaxs”ni anglatgan<sup>22</sup>. Bizningcha, men/ben/bin va ming/bi□ so‘zlarining kelib chiqishi bir so‘zi bilan bog‘liq. Bu so‘z turkiy tildan mo‘g‘ulchaga o‘tgan. Ayrim turkiy dialeklarda *ming* so‘zi o‘n yuz shaklida ifoda etilgan<sup>23</sup>. Shuningdek, biz kuzatgan boshqa manbalarda ham shu kabi fikrlar bayon etilgan.

**Tuman.** Qadimgi turk tilidan bizgacha yetib kelgan manbalarda aks etgan eng katta son tuman sanaladi. Bundan yirik tub son ifodalanmagan. Bitigtosh matnlarida qo‘shma son sifatida 9 marta tuman so‘zi qo‘llanilgan. Yodgorliklarda tuman so‘zi 10 000 ni bildirgan. Bundan yirik sonlarga uning ko‘paytmasi qo‘shib aytilgan: beş; tuman - 50 000, sākiz tuman - 80 000, on tuman - 100 000 va b. Tabğac n□ tutuq beş tuman su kelti – Tabg‘ach o‘ng tutuqning besh tuman qo‘shini keldi<sup>24</sup>. Tümän so‘zi haqida ham ma‘lumot bergan Klausson bu so‘zning ilk bor Ko‘kturk va Uyg‘ur xoqonligi davrida qo‘llanilganini aytadi. Tümän so‘zi aniq sonni bildirsa-da, noma‘lum katta sonlar uchun ham ishlatiladi. Shu sababli turkiy tilga ko‘p sonni ifodalash ma‘nosida kirgan birinchi so‘z – tümän so‘zi hisoblanadi. Ibtidoiy odamlarning kattaroq son qiymatlari uchun so‘zlarni boshqa tillardan olishlari tabiiydir. Bu borada Klausson toxtarlar bilan muloqotda bo‘lgan turklar tümän so‘zini o‘zlashtirganligini aytadi<sup>25</sup>.

<sup>21</sup> Ercilasun A.B. Başlangıçtan Yirminci Yüzyıla Türk Dili Tarihi, Akçağ Yayınları, Ankara.2009.

<sup>22</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Тошкент: Университет, 2000, -Б.240. (600).

<sup>23</sup> Türk dilinin etimologik sözlüğü. Ankara.1999. -B.54.

<sup>24</sup> Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. -Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti nashri, 2009 yil. -B. 125.

<sup>25</sup> Şenaysoy S. Eski türkçede sayılar. Eskişehir, 2016. -B.2.






Xuddi shu kabi fikrlar boshqa manbada ham keltirilgan. Yuzlik va minglikni bildiruvchi sonlar ham grafik va fonetik koʻrinishi bilan farq qiladi, lekin morfemik tarkibiga koʻra barcha turkiy tillar uchun bir xil. Oʻn ming va millionni bildiruvchi soʻzlarga kelsak, garchi turkiy tillarda bu soʻzlar (*tümän. tübän*) boʻlsa-da, ular turkiy tillar sonlarining asosiy tarkibiga kirmaydi va ularning aksariyati boshqa tillardan oʻzlashtirilgan boʻladi<sup>26</sup>. “Turk tilining etimologik lugʻati”da *tuman* soʻzining forschadagi shakli *tub(b)an* boʻlib, arabchadan oʻtgan boʻlishi mumkinligini, kurd tilida *tuman* shaklida ishlatilganini taʼkidlaydi. Hozirgi oʻzbek tilida *tuman* – maʼmuriy birlikni ifodalaydi. Shuningdek, toponimik obyektlar nomi (masalan: Tumanovul) sifatida ham faol qoʻllaniladi. Fanda bu soʻzning qaysi tildan, qaysi davrda oʻzlashgani bahsli boʻlsa-da, qadimdan turkiy tillarda faol qoʻllanilib kelingan soʻz sanaladi.

**XULOSA.** Qadimgi turkiy xalq Yevroosiyoning markaziy qismida saltanat qurib, doimiy xayoti jangu jadallar ichida oʻtgan boʻlsa-da, yuksak madaniy rivojlanishda boʻlgan va doimo shunga intilgan xalq sanaladi. Milodiy VII asrdan avvalgi ijtimoiy-madaniy yashash tarzi haqida maʼlumot beruvchi manbalar turkiy tilda bizgacha yetib kelmagan boʻlsa-da, Turk Xoqonligi davridan madaniy obida sifatida qolgan toshbitig va boshqa tarjima asarlar ularning faoliyati haqida yetarlicha maʼlumot bera oladi. Biz ilk yozma manba sifatida koʻriladigan Choyr/Choyren bitigtoshi toʻgʻrisida yozgan tadqiqotimizda<sup>27</sup> toʻxtalib oʻtganimiz kabi ushbu maqolamizda ham mangu bitigtoshlarga murojaat qildik. Ularning matnlarida ifoda etilgan sonlar, ularning lingvistik va ijtimoiy xususiyatlariga, ifodalanish turlari va etimologiyasida toʻxtalib oʻtishga harakat qildik. Bitigtosh matnlariga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, son va uning turlari oʻz oʻrni va pragmatik vazifasiga ega. Boshqa holatlar kabi ushbu matnlarda sonlarning sanoq va tub son, tartib va jamlovchi son, chama son kabi turlari qoʻllanilgan boʻlib, ularning boshqa turklari haqida keying ilmiy ishlarimizda batafsil bayon qilamiz.

Umuman, qadimgi bitigtosh matnlaridagi sonlar, oʻsha davrning ijtimoiy madaniy, siyosiy-harbiy va iqtisodiy hayotini maʼlum darajada aks ettira oladi. Biz mangutosh yodnomalarida ifodalangan sonlarning qoʻllanilishi va statistikasiga qarab,

<sup>26</sup> Ибрагимов Г. Д. Числительные и их передача в рунических и древнеуйгурских памятниках письменности. Вестник Башкирского университета. 2010. Т. 15. №3(1). -С.989.

<sup>27</sup> [https://www.researchgate.net/publication/373165939\\_Til\\_Ta'lim\\_Tarjima\\_-\\_10-2022/stats](https://www.researchgate.net/publication/373165939_Til_Ta'lim_Tarjima_-_10-2022/stats)





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

ma'lum ma'noda, Turk xoqonli davrining lisoniy qiyofasini tassavvur qila olamiz. Chunki, lingvostatistika davr manzarasini aks ettira oladi.

### IQTIBOSLAR/ЧОҚҚИ/REFERENCES

1. Bacanlı E. Geçmişten Günümüze Türkçenin Sayıları ve Sayı Sistemi. (99+) "[Geçmişten Günümüze Türkçenin Sayıları ve Sayı Sistemleri](#)", [Bilim ve Teknik \(Kasım-2012\)](#), 56-58. | [Eyüp Bacanlı - Academia.edu](#)
2. Baştürk, M. Parmakları sayma biçimi ve kökenlerinden hareketle türkçede sıra sayı sisteminin oluşumu. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi.1995, 3-sayı. [Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi » Makale » parmakları sayma biçimi ve kökenlerinden hareketle türkçede sıra sayı sisteminin oluşumu \(dergipark.org.tr\)](#)
3. Ercilasun A.B.Başlangıçtan Yirminci Yüzyıla Türk Dili Tarihi, Akçağ Yayınları, Ankara.2009.
4. [https://en.wikipedia.org/wiki/Georges\\_Ifrac](https://en.wikipedia.org/wiki/Georges_Ifrac)
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamlar> (sentabr 2022).
6. [https://www.researchgate.net/publication/373165939\\_Til-Ta'lim\\_Tarjima\\_-\\_10-2022/stats](https://www.researchgate.net/publication/373165939_Til-Ta'lim_Tarjima_-_10-2022/stats)
7. Qayumova N.R. Sonlarning hayotda ahamiyati. <https://cyberleninka.ru/article/n/sonlarning-hayotda-ahamiyati> (2022, sentabr).
8. Rabmonov N., Sodiqov Q. O'zbek till tarixi. -Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. 2009. -B.124-125
9. Şenaysoy S. Eski türkçede sayılar. Eskişehir, 2016.
10. Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. -Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti nashri, 2009 yil.
11. Turk dilinin etimologik sözlüğü. Ankara.1999. -B.54.
12. Г.Д.Ибрагимов. Числительные и их передача в рунических и древнеуйгурских памятниках письменности. Вестник Башкирского университета. 2010. Т. 15. №3(1).
13. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Тошкент: Университет, 2000, 600 б.

